

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyevena	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
Xodjaye Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
Yusupov Farhod Adamboyevich	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich	
OLIIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
Meliboyev Askar Eshmuratovich	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
Садиков Жaxonгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
Мирджуроев Сарвар Алишер угли	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	250
O'rinboev Ulug'bek Otabekovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО	259
Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
Давронов Олимбек, Туляганов Азиз	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	271
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
Azimova Maxfuza Rashidovna	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI	284
Xolov Xamza Tojiddinovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH	292
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
Ochilova Intizor Sadikovna	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
Sindarov Fazliddin Kaxramonovich	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
Odilova Malika Abdushukur qizi	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH SANOATIGA JORIY ETISH	317
Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOB TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	321
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	326
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI.....	332
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
USING ENGINEERING MODELS TO MEASURE SME RISKS IN UZBEKISTAN.....	340
Djumabayeva Dilobar Asatillayevna	
BANK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ASOSIY MASALALARI.....	347
Yusufov Javohirtshoh Ozod o'g'li, Xolmirzayev Elbek Baxtiyorovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JARAYONIDA TALABALARNING IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	353
Meyliyeva Shoxista Rustamovna	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	358
Усманова Азиза Баходировна	
O'ZBEKISTONDA ELEKTR YORITISH MAHSULOTLARI BOZORINI INNOVATSION LOKALIZATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DINAMIKA, TAHLIL VA PROGNOZ	363
Jurayev Murotjon Sotivoldiyevich	
HUUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA REYTINGLASH.....	371
Kosimov Bobir Abdigafarovich	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	376
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ОСНОВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	383
Мурадов Алишер Курбанбаевич	
ФОРМИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПАРАДИГМЫ АГРОТУРИЗМА КАК УСЛОВИЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	390
Усманова Диляфруз Каршиевна	
WAYS TO IMPROVE THE REGIONAL STRUCTURE OF THE INDUSTRY OF NAVAI REGION	396
Uralov Eliboy Omonovich	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG'INI TAKOMILLASHTIRISHDA SAMARALI XORIJIY TAJRIBA	400
Safarova Shahzoda	
НАЛОГОВОЕ СТИМУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА.....	405
Рафиева Зарина Хусановна	
INDUSTRY 4.0 SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	410
Djuraeva Guzal Shavkatovna	



SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	414
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	418
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СЛОВАРЯ И ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	425
Рихсибоева Нигора Низомиддин кизи, Тоймухамедова Дилобар Хуснитдиновна	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	434
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li	
KAM SUV TALABCHAN SEMENT OLIISH UCHUN RATSIONAL TARKIBNI TADQIQ QILISH.....	440
X.V. Yusupov, Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
ENHANCING THE EFFICIENCY OF ISLAMIC FINANCING MECHANISMS IN EMERGING ECONOMIES: EVIDENCE FROM MURABAHA-BASED INSTRUMENTS AND PUBLIC-PRIVATE INVESTMENT MODELS.....	445
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	453
Ibragimov Husen Ismailovich	
STUDIES ON OBTAINING AZOSUPERPHOSPHATE BY TREATING HIGH-CARBONATE, LOW-GRADE CENTRAL KYZYLKUM PHOSPHORITES WITH VARIOUS DOSAGES OF AMMONIUM SULFATE AND SULFURIC ACID.....	457
Saidov Hakimboy O'rinboyevich	
HUDUDIIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	463
Avliyaqulov Xudoyberdi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
NAVOIY VILOYATI SANOATI RIVOJLANISHINI BANDLIK VA INVESTITSIYA OQIMLARI ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	466
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	474
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li	
YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIIY MEKANIZMLARI VA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Rustamov Umidjon Xayitboyevich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI.....	485
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMLARIDA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI.....	494
Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li, Saydullayeva Dilnoza Komil qizi	
BENTONIT YORDAMIDA ISHLATILGAN TURBINA MOYLARINI TOZALASH ASOSIDA BAZAVIY MOY OLIISH IMKONIYATLARI.....	502
Salomatov Behruz To'ymurodovich, Panoyev Nodir Shavkatovich, Safarov Jasur Alijon o'g'li	
INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH VA KOMMUNIKATSIYA SAMARADORLIGI.....	506
Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi	



CHEMICAL–MINERALOGICAL CHARACTERIZATION AND DRY BENEFICIATION TECHNOLOGY OF FELDSPAR FROM THE SULTAN UVAYS DEPOSIT	512
Buranova Dinara Baxtiyarovna	
TRANSPORT LOGISTIKASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI ORQALI YUK TASHISH JARAYONIDAGI TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASHNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	520
Jabborov Islom Xusan o'g'li	
MAGNIT O'ZAGI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORLARDA MEXANIK ZO'RIQISH VA ISROFLARNI KAMAYTIRISH HAMDA TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MAQSADIDA ELLIPS KESIMNING OPTIMAL PARAMETRLARINI TANLASH.....	524
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ОТ ДЕКЛАРАЦИЙ К ДЕЙСТВИЮ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ БАРЬЕРЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	531
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI ISHINI SUN'IY INTELLEKT ORQALI BASHORAT QILISH VA YAXSHILASH.....	536
Axmadjonov Ixtiyorjon Rovshanjon o'g'li, Umurzakova Dilnoza Maxamadjanovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI QAYTARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN RISKGA ASOSLANGAN MODEL	542
Tuxliyev Bozor Karimovich, Dusiyarov Sherzod Xolmuratovich	
O'ZBEKISTONDA AGROFOTOVOLTAIKA: ILMIY-AMALIY RIVOJLANISH, PILOT LOYIHALAR VALIDATSIYASI VA ME'YORIY-HUQUQIY ISTIQBOLLAR	552
Shog'o'chqorov Sanjar Qodir o'g'li	
MINTAQAVIY INFRATUZILMANING IJTIMOYIY TABAQALASHUVGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	563
Babjanova Dilfuza Abdurasulovna	
SANOAT KORXONALARIDA KLASTERLASHUV JARAYONLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI	568
Xusanova Malohat Mingnorovna	
ПРИМЕНЕНИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФИНАНСОВОМ УЧЁТЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОПЕРЕРАБОТКИ.....	574
Икрамова Хилола Ровшан кизи	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH.....	583
Nurova Farog'at Salohiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING VA AUTSTAFFINGDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	590
Fayzullayev Nurulla Baxromovich	
TIJORAT BANKLARIDA YASHIL DEPOZITLAR VA YASHIL KREDITLAR HAJMINI OSHIRISH YO'LLARI .	596
Berdiyev Akram O'ktamovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI	601
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi	
DAVLATNING IJTIMOYIY SOHA MUASSASALARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	608
Hasanov To'liqin Axmatovich	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH MARKAZLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	616
Urazov Sadulla Shodiyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDOSINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	621
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	625
Junaydullaev Mels Asliddin o'g'li	
ECONOMIC SOLUTIONS OF THE COLLECTOR SYSTEM FOR THE EFFECTIVE USE OF THE UNDERGROUND ENVIRONMENT IN URBAN PLANNING.....	630
Usmonov Quvvat Turdievich, Orazbayeva Nazokat Maksetovna, Usmonova Madina Quvvat qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA MASHINALI O'RGANISH TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI HUDUDLAR VA TARMOQLAR KESIMIDA TAHLIL QILISH	635
Muxamadjonova Durdona Adashboy qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING ROLI	642
P.SH. Usmonov	
ASINXRON MOTORLARDAGI TASHQI SOCHILMA MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH ORQALI DIAGNOSTIKA QILISH.....	646
Pirmatov Nurali, Bekishev Allabergen, Kurbonov Najmiddin, Jalilov Akobir	
ОСОБЕННОСТИ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ	652
Х.Б. Убайдуллаев	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	659
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
"QUYUV MEKANIKA ZAVODI" AJDA ASOSIY VOSITALARNING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	664
Suyunova Zuxra Bahodir qizi	



“QUYUV MEXANIKA ZAVODI” AJDA ASOSIY VOSITALARNING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Suyunova Zuxra Bahodir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Audit kafedrasida assistenti

E-mail: suyunovazb94@gmail.com

ORCID: 0009-0003-1707-4161

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Quyuv mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish holati tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosiy vositalarni hisobga olish, ularni baholash, eskirishini hisoblash hamda ularning harakatini hujjatlashtirish jarayonlari o‘rganilgan. Shuningdek, mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish va hisob tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: asosiy vositalar, buxgalteriya hisobi, eskirish, amortizatsiya, hisob siyosati, korxonalar hisobi, moliyaviy hisobot

Аннотация. В данной работе анализируется состояние бухгалтерского учета основных средств в акционерном обществе «Литейно-механический завод». Рассматриваются процессы учета, оценки, начисления амортизации и документирования движения основных средств. Также выявлены существующие проблемы и разработаны научно-практические рекомендации по их устранению и совершенствованию учетной системы.

Ключевые слова: основные средства, бухгалтерский учет, амортизация, износ, учетная политика, предприятие, финансовая отчетность

Abstract. This paper analyzes the state of fixed asset accounting at the Joint-Stock Company “Foundry Mechanical Plant”. It examines the processes of accounting, valuation, depreciation calculation, and documentation of fixed asset movements. Existing problems are identified, and scientific and practical recommendations are developed to eliminate them and improve the accounting system.

Key words: fixed assets, accounting, depreciation, amortization, accounting policy, enterprise, financial reporting

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi hamda raqobatning kuchayishi buxgalteriya hisobining samarali tashkil etilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi muhim iqtisodiy resurslardan biri bo‘lib, ularning hisobini to‘g‘ri yuritish, nazorat qilish va tahlil qilish korxonalar moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Quyuv mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatida asosiy vositalar ulkan ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lib, ular yordamida mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladi. Shu sababli, asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish nafaqat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi, balki korxonaning iqtisodiy samaradorligini ham yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritishning hozirgi holati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro va milliy buxgalteriya standartlari asosida hisob yuritishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

G‘arb iqtisodiy tafakkuridagi ko‘pchilik yondashuvlar “asosiy kapitalni bir necha ishlab chiqarish sikllarida ishtirok etuvchi kapital aktivlariga yo‘naltirilgan kapital yig‘indisi sifatida ta‘riflashga olib keladi”¹. Ya‘ni, bu yerda “asosiy

1 Гарифуллина А.А. Различные подходы к определению понятий “основные средства”, их “оценка” и “амортизация” [Электронный ресурс] / А. А. Гарифуллина // Молодой ученый. – 2014. – № 7. – Режим Доступа: <https://moluch.ru/archive/66/11103/> (дата обращения: 06.12.2019).



kapital” tushunchasi “asosiy vositalar” bilan tenglashtiriladi. Shu bilan birga, Rossiya hisob amaliyoti uchun asosiy vositalarni asosiy kapitalning bir qismi sifatida qabul qilish xos bo‘lib, “unga shuningdek nomoddiy aktivlar, moddiy qiymatlarga kiritilgan daromadli investitsiyalar va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar ham kiradi”².

Sotsialistik iqtisodiyotda esa “asosiy kapital” kategoriyasi umuman terminologiyadan chiqarib yuborilgan bo‘lib, uning o‘rnini “asosiy fondlar” tushunchasi egallagan. Asosiy fondlar tushunchasini asosiy vositalar tushunchasi bilan tenglashtirish masalasida ham ikki xil qarash mavjud. Iqtisodchi-olimlarning bir guruhi (A.F. Ionova, N.N. Selezneva, A.D. Sheremet, V.K. Sklyarenko, V.M. Prudnikova, G.V. Saviskaya) “ushbu tushunchalarni sinonim deb hisoblaydi va “asosiy vositalar” atamasidan foydalanganda qavs ichida “fondlar” degan qo‘shimchani ham keltiradi”^{3,4}. Boshqa bir guruh olimlar (N.A. Solovyova⁵, Ye.A. Medvedeva, A.M. Litovskix⁶, V.F. Garbuzov, Ye.S. Sokolova⁷) esa bu tushunchalarni bir-biridan farqli deb hisoblaydi. Masalan, V.F. Garbuzov tahriridagi moliya-kredit lug‘atida berilgan ta’rifga ko‘ra, “asosiy vositalar — bu mavjud asosiy fondlarga yo‘naltirilgan pul mablag‘laridir”⁸.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham asosiy vositalarning turli jihatlarini o‘rganib, ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, E.Gadoyev, N.Xasanov va L. Yugayning ta’riflariga ko‘ra, “asosiy fondlar-moddiy va nomoddiy aktivlar majmui”⁹ sifatida tushuniladi.

Q. Shakarovning fikricha “asosiy vositalarga mehnat vositalarini ishlab chiqarish omili sifatida ikki xil turini kiritiladi. Birinchisi, mehnat qurollari, unga qo‘l mehnati qurollari, mashina mexanizmlari, uskunalar, o‘lchov, hisoblash, aloqa asboblari; ikkinchi, mehnat sharoiti vositalari, unga inshootlar, yordamchi qo‘rilmalar, yo‘llar, suv omborlarini kiritiladi. Asosiy vositalarning har birini mulk obyekti sifatida o‘rganilgan bo‘lib, olim asosiy vositalar qiymati va baholanishi minimal ish haqiga bog‘liq bo‘lib qolayotganligi ziddiyatli holat ekanligi va O‘zbekiston hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish muhimligini ta’kidlaydi”¹⁰.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda “Quyuv mexanika zavodi” AJda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini o‘rganish va uni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish maqsadida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi.

Shuningdek, korxonaning moliyaviy hisobotlari va asosiy vositalar hisobi bo‘yicha amaldagi hujjatlar o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida milliy buxgalteriya standartlari hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga asoslanildi.

Tahlil va natijalar

Korxonada qayta baholangan asosiy vositalar guruhlarini to‘g‘risida boshqaruvga batafsil ma’lumot berilishi muhim ahamiyat kasb etib, korxonada boshqaruvga asosiy vositalar holatining obyektiv ifodalanishi, korxonada uskunalarini yangilash yoki uni hisobdan chiqarish to‘g‘risida oqilona qaror qabul qilishi uchun 8510 “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” sheti batafsil ma’lumot bermaydi. Ushbu shetda nafaqat qayta baholangan asosiy vositalar, balki nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish va boshqa uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi bo‘yicha ma’lumotni umumlashtirgan holda ifodalaydi. Ma’lumki, AV aktivlarning katta qismini takshil etib, ularning qayta baholanishi amortizatsiya, daromad va kapitalga ta’sir etadi, 8510 “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” nafaqat AV balki, nomoddiy aktivlar va boshqa qiymati o‘zgarishi amortizatsiya bilan emas, asosan bozor qiymatining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq muddatli aktivlar to‘g‘risida ma’lumot berishi sababali, boshqa aktivlarning qayta baholanishini oldini olish (masalan kapital quyilmalar), asosiy vositalarni modernizatsiyalash, va boshqa bir qator muhim jihatlar bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilish qiyinchilik tug‘irishi mumkin. Shuningdek, qayta baholashni uzoq muddatli

2 Гарифуллина А.А. Различные подходы к определению понятий “основные средства”, их “оценка” и “амортизация” [Электронный ресурс] / А. А. Гарифуллина // Молодой ученый. – 2014. – № 7. – Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/66/11103/> (дата обращения: 06.12.2019).

3 Ионова А.Ф. Учет и анализ внешнеэкономической деятельности / А. Ф. Ионова, Н. Н. Селезнева. – М.: ТК Велби: Проспект, 2006. – 623 с.

4 Шеремет А. Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности: учебник / А. Д. Шеремет. – М.: Инфра-М, 2006. – 415 с.

5 Соловьева Н.А. Анализ основных средств и эффективности их использования: учебное пособие / Н.А. Соловьева, Е.А. Медведева – Краснояр. гос. торг. – экон. ин-т. – Красноярск, 2006. – 54 с.

6 Литовских А.М. Финансовый менеджмент: конспект лекций / А. М. Литовских. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, – 1999. – 76 с.

7 Соколова Е. С. Бухгалтерский учет: учебно-методический комплекс / Е. С. Соколова. – М.: Изд. центр ЕАОИ. – 2008. – 200 с.

8 Гарифуллина А.А. Различные подходы к определению понятий “основные средства”, их “оценка” и “амортизация” [Электронный ресурс] / А. А. Гарифуллина // Молодой ученый. – 2014. – № 7. – Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/66/11103/> (дата обращения: 06.12.2019).

9 Гадоев Э.Ф. и др. Учет и налогообложение основных средств и нематериальных активов / [Э.Ф.Гадоев, Н.Х.Хасанов, Л.П.Югай]. – Т.: Изд. дом “Мир экономики и права”, 2004. – 206 с.

10 Shakarov Q.A. Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish (mulkchilikning turli xil shakllarida) Toshkent moliya instituti. iqtisodiyot fanlari falsafa doktori nomzodlik dissertatsiyasiga Avtoreferat: 08.00.08. 2000 yil

aktivlar bo'yicha umumiy aks ettirilishi asosiy vositalarning eskirishidan zararani ko'rsatmasligi mumkin. Va bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida biz asosiy vositalarning qayta baholanishi bo'yicha o'zgarishlarni 8511-"Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida aks ettirishni taklif qilamiz. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan mazkur taklif "Quyuv-mexanika zavodi" AJda hisob siyosatini ishlab chiqishda foydalanilgan bo'lib, ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida jamiyatning asosiy vositalari holatini to'g'ri va haqqoniy baholash hamda asosiy vositalar bo'yicha shaffof va ishonchli axborot taqdim etilishiga erishilgan.

Qayta baholangan asosiy vositalarni alohida 8511-"Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida yuritilishi jamiyat boshqaruviga asosiy vositalarni boshqarish bo'yicha oqilona qarorlar qabul qilishga, hamda shaffof va ishonchli axborot taqdim etilishiga yordam beradi. Bu asosiy vositalarning eskirish riskining kamayishiga va resurslardan foydalanish samaradorligining oshishiga yordam beradi. Shuningdek, asosiy vositalar qayta baholanishi bo'yicha o'zgarishlarni alohida schetda aks ettirish investitsiyalarning rentabelligini (ROI) baholash va byudjetni rejalashtirish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotdan foydalanish kompaniyalarga strategiyasini o'zgartirish va moliyalashtirishni jalb qilishga yordam beradi.

Asosiy vositalarning qayta baholanishini hisobda alohida 8511 schyotda aks ettirish moliyaviy hisobotning shaffofligini va moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili natijaviyligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich qiymatni qayta baholash bilan bir vaqtda jamg'arilgan eskirish summasini (0200 schyotlar) ham qayta hisoblash lozim, shu jumladan amortizatsiyasi to'liq hisoblangan obyektlar bo'yicha ham.

Jamg'arilgan eskirishni quyidagi usullarda qayta baholash mumkin:

indeksli usulda – AV qiymati o'zgarishining tegishli indekslarini qo'llash orqali;

bevosita usulda – qayta baholashdan keyingi AV qiymatining qayta baholashgacha bo'lgan qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan qayta hisoblash koeffitsiyentini qo'llash orqali.

Indeks usulida qayta baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

Qayta baholash indeksleri jadvalida indekslar quyidagi kesimda berilgan:

AV kodlari;

ko'chmas mulk joylashgan mintaqaga qarab ularning guruhlari. Masalan, M-1 guruhi – Toshkent sh.;

xarid qilish, tayyorlash yoki qurilish davrlari.

Quyida indeks usulida qayta baholashniko'rib chiqamiz:

Uskunaning ning boshlang'ich qiymati – 45 mln so'm, jamg'arilgan eskirish – 9 mln so'm. Qayta baholashning shartli indeksi – 1,1.

Uskunaning qayta baholangan qiymati – 49,5 mln so'm (45 x 1,1), qayta baholangan eskirish – 9,9 mln so'm (9 x 1,1).

Qo'shimcha baholash summasi:

$(49,5 - 9,9) - (45 - 9) = 3,6$ mln so'm.

Asosiy vositalarni qayta baholanishi natijasida ularning qiymati oshishi yoki pasayishi mumkin. Bunda qayta baholangan asosiy vositalar bilan bog'liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi provodkalar orqali ifodalanadi (1-jadval):

1 - jadval

Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha provodkalar¹¹

№	Xo'jalik operatsiyasi nomi	Debet	Kredit
Qayta baholash natijasida asosiy vositalar qiymati pasayishi			
1	AV qiymatining pasayishini hisobga olish	8511 "Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar"	0100 "Asosiy vositalar"
2	Jamlangan amortizatsiyaning kamayishini hisobga olish	0200 "Asosiy vositalarning eskirishi"	8511 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar"
3	AV qiymati tushishi summasining qiymati oshishi summasidan ortiq bo'lgan ko'rsatkichi aks ettiriladi	9430 "Boshqa operatsion xarajatlar"	0100 "Asosiy vositalar"
Qayta baholash natijasida asosiy vositalar qiymatining oshishi			
4	AV qiymatining oshishini hisobga olish	0100 "Asosiy vositalar"	8511 "Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar"

11 O'zbekiston Respublikasining 5-sonli BHMS «Asosiy vositalar». O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i, 09.08.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3546



5	Jamlangan amortizatsiyaning ko'payishini hisobga olish	8511 "Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar"	0200 "Asosiy vositalarning eskirishi"
6	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymati va jamg'arilgan eskirishning qo'shimcha baholangan summalari o'rtasidagi farq aks ettirildi	0100 "Asosiy vositalar"	8511 "Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar"

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, qayta baholangan asosiy vositalar hisobini qayta baholangan uzoq muddatli aktivlar qiymatidan alohida moliyaviy hisobotlarda aks ettirish asosiy vositalar bo'yicha ma'lumotning shaffofligini va boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda buxgalteriya hisobi va audit talablariga muvofiqligini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida zamonaviy biznesda asosiy vositalarni hisobga olish yirik korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt uchun asosiy vositalarning holati, harakati, amortizatsiyasi va bahosi to'g'risida ishonchli axborotni aks ettiruvchi yillik hisobotning tuzilishi buxgalteriya hisobining axborot-tahliliy imkoniyatlarini oshirish hamda oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bir qatorda moliyaviy barqarorlik, qonunchilikka rioya qilish va investitsiyalarni jalb qilish uchun strategik ahamiyatga kasb etadi. Aktivlar ulushida asosiy vositalar 80% gacha tashkil qiluvchi yirik kompaniyalar uchun ular to'g'risida ishonchli, shaffof va batafsil axborotga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalarni hisobga olish to'g'risidagi yillik hisobotni tuzish korporativ boshqaruv uchun muhim bo'lib, u strategik rejalashtirish va oqilona qarorlar qabul qilish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

U korporativ boshqaruvga aktivlar samaradorligini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etadi: asosiy vositalarning aylanmasi, ya'ni xarakati tahlili, aktivlar rentabelligi (ROA) va kelajak uchun prognozlar. Yirik korxonalar ushbu hisobotlardan kapital qo'yilmalarni optimallashtirish, ya'ni uskunalarni yangilash yoki eskirgan aktivlarni sotish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda foydalanadilar.

Masalan: eskirgan uskunaga ega zavod past samaradorlikni ko'rsatadi. Hisobotdan amortizatsiya real ta'mirlash xarajatlarini qoplamasligini ko'rish mumkin bo'ladi, bu esa boshqaruvni yangi texnologiyalarga sarmoya kiritishga undaydi. Deloitte auditorlik tashkiloti tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, "asosiy vositalar hisobini muntazam ravishda tahlil qiluvchi kompaniyalar ishlab chiqarishning to'xtab qolishi va energiya xarajatlarini kamaytirish natijasida operatsion samaradorlikni 15-20% ga oshiradi"¹². Bundan tashqari, hisobot ma'lumotlar to'plashni avtomatlashtirish va inson omilini minimallashtirish, orqali ERP tizimlari (masalan 1C dasturi) bilan integratsiyalashadi. Raqamlashtirish davrida bu sun'iy intellektni eskirishni prognozlash imkonini beradi, bu ayniqsa yuqori texnologiyali aktivlarga ega tarmoqlar uchun muhimdir.

"Asosiy vositalarni hisobga olish to'g'risidagi yillik hisobot"ni yirik kompaniyalarning resurlarini optimallashtiruvchi, barqaror rivojlanishi uchun asos bo'luvchi strategik aktiv sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablari asosida bugungi kunda "Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot" bekor qilingan bo'lib, ushbu hisobot tuzilishi va taqdim qilinishi talab etilmaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu hisobotning taqdim etilmasligi kompaniyaning moliyaviy holati, uning aktivlari ustidan nazorat, "oqilona" boshqaruv va investitsion qarorlarni qabul qilinishi kabi muhim jihatlarning to'liq bajarilmasligiga olib keladi (2-jadval).

2-jadval

"Asosiy vositalarni hisobga olish to'g'risidagi yillik hisobot"¹³

2025-yil uchun				
Korxonalar, tashkilot	Jo'natilgan sana-			
Manzil	Qabul qilingan sana -			
O'lchov birligi, ming so'm	Taqdim qilish muddati-			

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Yil boshiga			Hisobot davrida		Yil oxiriga qoldiq qiymati		
		Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya	Qoldiq qiymat	Boshlang'ich qiymatining o'zgarishi	Amortizatsiyaning o'zgarishi	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya	Qoldiq qiymat

12 <https://www.deloitte.com/kz/ru.html>

13 O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomondan ishlab chiqildi.



1	2	3	4	5	7	8	11	12	
Yer	010								
Yerni obodonlashtirish	020	25 216 596	9 919 843	15 296 753	145 350	801 051	25 361 946	10 720 894	14 641 052
Uzoq muddatli ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish	030								
Bino	040	110 558 668	38 104 866	72 453 802	9 723 908	2 219 687	120 282 576	40 324 553	79 958 023
Inshoat	050	1 552 510	917 604	634 906	0	32 823	15 525 10	950 427	602 082
Uzatish moslamalari	060								
Mashina va uskunalar	070	508 022 344	355 611 364	15 2410 980	-62 298	21 377 707	507 960 046	376 989 071	130 970 975
Mebel va ofis jihozlari	080								
Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi	090	1 353 027	822 696	530 331	0	272 341	1 353 027	1 095 038	257 989
Transport vositalari	100	12 632 605	7 189 501	5 443 104	980 518	887 548	13 613 123	8 077 050	5 536 073
Ishchi hayvonlar	110								
Mahsuldor hayvonlar	120								
Ko'p yillik o'simliklar	130	32 342	16 142	16 200	24 089	4 584	56 431	20 726	35 705
Boshqa asosiy vositalar	140	774 952	434 641	340 311		53 582	774 952	488 224	286 728
Konservatsiya qilingan asosiy vositalar	150								
Uzoq muddatli ijara (lizing) ga olingan asosiy vositalar	160								
Jami asosiy vositalar (010 satrdan 160 satrgacha)	170	660 143 044	413 016 658	247 126 385	10 811 567	25 649 324	670 954 610	438 665 982	232 288 628
shundan:									
ishlab chiqarish	171								
noishlab chiqarish (administrativ)									
noishlab chiqarish (ijtimoiy maqsadlarda)	172								
MA'LUMOT UCHUN:									
Yil davomida sotib olingan asosiy vositalar, jami (sitr 181+182+183) shu jumladan:	180				x	x	X	x	x
o'z mablag'lari hisobiga	181				x	x	X	x	x
bank krediti hisobiga	182				x	x	X	x	x
boshqa qarzga olingan mablag'lar hisobiga	183				x	x	X	x	x



Tugallanmagan Qurilish	190				x	x	X	x	x
------------------------	-----	--	--	--	---	---	---	---	---

Rahbar _____

Bosh buxgalter _____

“Asosiy vositalarni hisobga olish to‘g‘risidagi yillik hisobot”ning tuzilishi va korxonada boshqaruviga mulkning saqlanishini nazorat qilish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini baholash va aniq amortizatsiyani hisoblashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hisobot investitsiyalarning shaffofligini ta‘minlaydi, fondlarni yangilashni rejalashtirishga yordam beradi va tashqi foydalanuvchilar tomonidan kompaniyaning moliyaviy holatini tahlil qilish uchun zarur vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta‘minlashda asosiy vositalar harakati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotning taqdim etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifaning bajarilishida korporativ boshqaruvga “Asosiy vositalarni hisobga olish to‘g‘risidagi yillik hisobot” yordam beradi va u strategik rejalashtirish va oqilona qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Korxonada asosiy vositalarning nafaqat mavjudligi, balki ularning haqqoniy bahosi aniqlanishi muhim hisoblanadi. Asosiy vositalarning haqqoniy bahosi aniqlanishi va ushbu bosqichning asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish jarayoniga kiritilishi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning to‘g‘ri iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy vositalarga amortizatsiya, ya‘ni eskirish qiymatini to‘g‘ri hisoblash moliyaviy hisobotda aktivlar to‘g‘risida ishonchli axborot taqdim etilishiga asos bo‘ladi. Korxonadagi barcha asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmalarini buxgalteriya hisobi va soliq hisobi maqsadlarida bir xil usulda, ya‘ni to‘g‘ri chiziqli usulda hisoblanishi buxgalter uchun qulylik yaratib, ortiqcha hisob kitoblarning oldini olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 5-sonli BHMS «Asosiy vositalar». O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i, 09.08.2024-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3546
2. Гарифуллина А.А. Различные подходы к определению понятий “основные средства”, их “оценка” и “амортизация” [Электронный ресурс] / А. А. Гарифуллина // Молодой ученый. – 2014. – № 7. – Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/66/11103/> (дата обращения: 06.12.2019).
3. Гарифуллина А.А. Различные подходы к определению понятий “основные средства”, их “оценка” и “амортизация” [Электронный ресурс] / А. А. Гарифуллина // Молодой ученый. – 2014. – № 7. – Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/66/11103/> (дата обращения: 06.12.2019).
4. Ионова А.Ф. Учет и анализ внешнеэкономической деятельности / А. Ф. Ионова, Н. Н. Селезнева. – М.: ТК Велби: Проспект, 2006. – 623 с.
5. Шеремет А. Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности: учебник / А. Д. Шеремет. – М.: Инфра–М, 2006. – 415 с.
6. Соловьева Н.А. Анализ основных средств и эффективности их использования: учебное пособие / Н.А. Соловьева, Е.А. Медведева – Краснояр. гос. торг. – экон. ин-т. – Красноярск, 2006. – 54 с.
7. Литовских А.М. Финансовый менеджмент: конспект лекций / А. М. Литовских. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, – 1999. – 76 с.
8. Соколова Е. С. Бухгалтерский учет: учебно–методический комплекс / Е. С. Соколова. – М.: Изд. центр ЕАОИ. – 2008. – 200 с
9. Гарифуллина А.А. Различные подходы к определению понятий “основные средства”, их “оценка” и “амортизация” [Электронный ресурс] / А. А. Гарифуллина // Молодой ученый. – 2014. – № 7. – Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/66/11103/> (дата обращения: 06.12.2019).
10. Гадоев Э.Ф. и др. Учет и налогообложение основных средств и нематериальных активов / [Э.Ф.Гадоев, Н.Х.Хасанов, Л.П.Югай]. – Т.: Изд. дом “Мир экономики и права”, 2004. – 206 с.
11. Shakarov Q.A. Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil kilish (mulkchilikning turli xil shakllarida) Toshkent moliya instituti. iqtisodiyot fanlari falsafa doktori nomzodlik dissertatsiyasiga Avtoreferat: 08.00.08. 2000 yil
12. <https://www.deloitte.com/kz/ru.html>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100